

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

#### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

<b>K.Kodirov</b>	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish .....	118
<b>B.Jumayev</b>	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
<b>U.Usarov</b>	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariiga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
<b>SH.Tosheva</b>	
VIII – XII asrlarda O'rta Osyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	133
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK</b>	
<b>A.Sabirdinov</b>	
Tuganmas ilhom manbai .....	138
<b>Q.Yo'Ichiyev</b>	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar .....	142
<b>G.Mashrapova</b>	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar .....	148
<b>SH.Jumanova</b>	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi .....	151
<b>E.Shevchenko</b>	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha .....	155
<b>G.Nazarova</b>	
Ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
<b>D.Xusenova</b>	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
<b>TILSHUNOSLIK</b>	
<b>X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova</b>	
Erqonimlarning leksik-semantik xususiyatlari .....	169
<b>N.Achilova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri .....	173
<b>Sh.Sultonova, O.Usmonov</b>	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida .....	178
<b>Z.Akbarova, G.Sodiqova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari .....	182
<b>I.Saydamatov</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	186
<b>Sh.Amonturdieva</b>	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralangvistik omillar .....	191
<b>M.Batirxanova</b>	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funktsiyalarining tadqiqi .....	195
<b>N.Djalilova</b>	
Nofilologik oly o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetentsiyasi .....	199
<b>A.Zinatullina</b>	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar .....	203
<b>MATEMATIKA</b>	
<b>A.O'rinnov, M.Azizov</b>	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chejaraviy masala .....	207
<b>K.Xalilov</b>	
Singulyar koefitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
<b>T.Xasanov</b>	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

**INGLIZ HAMDA O'ZBEK ADABIYOTIDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING MIFOLOGIZATSİYASI  
VA ULARNING O'ZIGA XOSLIGI**

**MYTHOLOGICALIZATION OF MYTHOLOGICAL IMAGES IN THE ENGLISH AND UZBEK  
LITERATURE AND THEIR SPECIFICITY**

**МИФОЛОГИЗАЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ  
ЛИТЕРАТУРЕ И ИХ СПЕЦИФИКА**

**Nazarova Gulbahor Pirmanovna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Nazarova Gulbahor Pirmanovna**

– *Buxoro davlat universiteti, ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasи katta o'qituvchi.*

**Annotatsiya**

*Maqolada ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi haqida ma'lumot keltirilgan. Ma'lumki, jahon adabiyotida mif(asotir)lar juda muhim o'rinn tutadi. Barcha millat adabiyotida mif, afsona, ertaklar millatning yashash tarzi, xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi kuzatiladi. Mifologik obrazlar ingliz hamda o'zbek adabiyotida asrlar davomida og'zaki va yozma adabiyot namunalarida keng qo'llanib kelinmoqda. Ingliz va o'zbek qadimgi adabiyotidan to hozirgi zamonaviy adabiyot namunalarida ham mifologik obrazlarning mifologizatsiya qilingani uchratish mumkin, bu esa ikkala halq adabiyoti o'tasidagi adabiy aloqa va o'zaro ta'simi o'zida namoyon etadi.*

**Аннотация**

*В статье представлены сведения о мифологизации мифологических образов в английской и узбекской литературе и их специфике. Известно, что мифы играют очень важную роль в мировой литературе. В литературе всех народов мифы, легенды и сказки воплощают образ жизни и особенности нации. Мифологические образы веками широко использовались в английской и узбекской устной и письменной литературе. От древней английской и узбекской литературы до литературы современного периода встречаются мифологизация мифологические образы, отражающие литературную связь и взаимодействие между литературами двух народов.*

**Abstract**

*The article presents information about the mythologicalization of mythological images in English and Uzbek literature and their specific features. It is known that myths play a very important role in the world literature. In the literature of all nations, myths, legends and fairy tales embody the way of life and characteristics of the nation. Mythological images have been widely used for centuries in the English and Uzbek oral and written literature. From ancient English and Uzbek literature to the literature of the modern period, there can be met mythologicalization process of mythological images that reflect the literary connection and interaction between the literatures of the two nations.*

**Tayanch so'zlar:** mif, afsona, asotir, ertak, mifologizm, mifologik obraz, mifologizatsiya

**Ключевые слова:** миф, легенда, сказка, мифологизм, мифологический образ, мифологизация

**Keys words:** myth, legend, fairy tale, mythology, mythological images, mythologicalization.

**KIRISH.** Ma'lumki, jahon adabiyotida mif(asotir)lar juda muhim o'rinn tutadi. Barcha millat adabiyotida mif, afsona, ertaklar millatning yashash tarzi, xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi kuzatiladi.

Mif grekcha "mythos – со'з, rivoyat" degani bo'lib, insonlarning ilk ijod shaklini anglatadi. Mif eng qadimgi folklor namunasi, halq og'zaki nasrining alohida epik janri hisoblanadi. "Mif" deganda, eng qadimgi davr folklorining ilk bosqichida ibtidoiy insonlarning olam va odam, osmon jismlari yaralishi, tabiat hodisalarining yuz berishi, ularning xudolar tomonidan boshqarilishi, hayvonlar, o'simliklar, predmetlar dunyosining paydo bo'lishi haqida xayoliy uydirmaga asoslanib hikoya qilingan ixcham shaklli kichik sodda hikoyalari tushuniladi. Ularning tarkibida inson personajni keltirilmaydi.

Mifologiyaning negizi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi bo'lgan ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. U insoniyat ma'nnaviy taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning ilk ko'rinishi, asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosidir. Shu o'rinda bir necha millatlarning mifologiyasi, jumladan, jahondagi qadimgi yunon, kelt, irland halqlari singari o'zbeklar mifologiyasi ham qadimdan shakllanganligi e'tiborlidir. Olam va odam hayotining sodda talqinlariga asoslangan, voqeliklar ongsiz-hissiy anglash orqali izohlangan, lekin o'ziga xos ramziy-metaforik obrazlar, so'z san'atiga tayanib yaratilgan ilk og'zaki hikoyalari

ko'pincha magik marosimlar tizimi, mifologik tafakkur bilan bog'liq taraqqiy etib kelgan. Shu ma'noda mifologiya ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. U, avvalo, folklor, undan so'ng yozma adabiyot, san'atning barcha turlari (kashtachilik, haykaltaroshlik, musiqa, raqs va hokazolar) shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini o'tagan.

Mifologik tasavvurlar mohiyatini anglash va ularni ilmiy talqin qilishga urinishlar antik davrdan boshlangan. Masalan, yunon faylasuflaridan Platon miflarni falsafiy-ramziy nuqtayi nazardan talqin qilgan bo'lsa, Evgemer (mil. av. 3-a.) mifik obrazlarni o'tmishda yashab o'tgan real tarixiy shaxslarning timsoliy ifodasi deb ko'rsatgan.

XX asr 20-yillarining oxiri va 30-yillarining boshlanishi adabiyotida mif tushunchasi ijtimoiy-madaniy hayot bilan keng bog'lab talqin etila boshlandi. Bunga esa uning eng muhim xususiyati – model, misol sifatida o'zgarmasligi asos bo'ldi. Chunki miflarga xos afsonaviy vaqt va sirli makonda g'ayritabiyy qahramonlar tabiatda o'rnatilgan tartibni saqlab qolgani kabi jamiyatda o'rnatilgan tartibning ham ular tomonidan saqlab qolinishi, bunda sehrli, ruhiy kuchlarning o'rnini insonlar egallay borishi mifologizmga xos xususiyatdir. Bir so'z bilan aytganda, halq mifologiyasining qayta ishlanishi, ijodkor aql-zakovati, iste'dodi asosida "yangi yaratilgan mif" – "mifologizm" hisoblanadi. Shuning uchun X. Gadamer mif va aql munosabatiga alohida to'xtaladi.[3, 233]

Mifologizm mafkuraviy hodisa sifatida totalitar tizimlarga va ular yaratgan san'atga xosdir. Xususan, butun dunyoda siyosiy va ijtimoiy g'alabalarning isboti sifatida yaratilgan talqinlarda mifga badiiy vosita sifatida yondashish holatlari ko'p kuzatiladi.

**Materiallar va metodlar.** Mifologik tasavvurlar mohiyatini anglash va ularni ilmiy talqin qilishga urinishlar antik davrdan boshlangan. Masalan, yunon faylasuflaridan Platon miflarni falsafiy-ramziy nuqtayi nazardan talqin qilgan bo'lsa, Evgemer (mil. av. 3-a.) mifik obrazlarni o'tmishda yashab o'tgan real tarixiy shaxslarning timsoliy ifodasi deb ko'rsatgan.

XIX asrning birinchi yarmida Germaniyada "mifologik mакtab" yuzaga kelgan. Mifologik maktabning nazariy asoslarni nemis filologlari aka-uka Ya. va V. Grimmlar "Nemis mifologiyasi" kitobida halq ertaklarini tahlil qilish jarayonida qadimiy mifologik tasavvurlarning epik syujetlar tarkibidagi qoldiqlarini aniqlash orqali Hind-yevropa halqlari mifologiyasi yagona negizga borib taqalishini isbotladilar. Keyinchalik bu nazariyani A. Kun, V. Shvarts, V. Mannhardt (Germaniya), M. Breal (Frantsiya), M. Myuller (Angliya), F.I. Buslaev, A.N. Afanas'ev, O.F. Myuller, A.A. Potebnya, V. Meletinskiy (Rossiya) kabi olimlar miflarni qiyosiy tadqiq etish asosida rivojlantirishdi.

O'zbek mifologiyasi tadqiqi sohasida esa G'.Akramov, B.Sarimsoqov, T.Haydarov, T.Rahmonovlarning mif va epos, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, O.Qayumovlarning o'zbek mifologiyasining obrazlar tizimi va genetik asoslari, Sh.Shomusarovning o'zbek va arab mifologiyasining qiyosiy tahlili bo'yicha erishgan yutuqlari e'tiborga sazovordir. [5, 348]

**Natija va uning tahlili.** Zamoniyy ingliz adabiyotida fentezi janri g'oyalari mifologik syujetlarga asoslangan. Ingliz yozuvchisi Neyl Geymenning "Qabriston hikoyasi" ("The Graveyard Book") asarida aynan mifologizatsiya hodisasi kuzatiladi. Mifologizatsiya muayyan g'oya, qarash, nuqtayi nazarning ayni zamонни yangicha usul va vositalar bilan o'zgartirishga xizmat qiladigan shaklda namoyon bo'lishidir. Ijtimoiy ong shakllarining o'zaro uyg'un holda munosib namoyon bo'lishi tafakkurni yangilaydi va yangicha yondashuvlarni paydo qiladi.[4, 160] Asar bosh qahramoni Bod ismli bola uch yoshligidanoq yetim qoladi va ruhlar bo'lmish Ovenlar oilasining asrandi farzandi bo'ladi. Bodga bolaligidan juda qiziquvchan va jasur bo'lganligi keyinchalik xavfli holatlardan qutulishida yordam beradi. U yoshligidan uyi oldidagi qabristonda emaklab yurishni odad qiladi va shu tufayli qabriston ruhi boshlig'i unga "Freedom of the Graveyard" taxallusini beradi. Bu taxallus unga o'liklar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatini hamda ulardan biri bo'lish imkoniyatini beradi. Bodning qiziquvchanligi ulg'aya borgani sari orta boradi va uning boshiga kulfat yog'ila boshlaydi. U asl ota-onasining kimligini bilmaganligi uchun o'ziga "Nobody Bod Owens", ya'ni "Hech kim Bod Oven" deb ism qo'yadi. Kunlardan bir kuni u qabristonda izg'ib yurib, vampirlarga duch keladi. Ularga ishonib, izidan vampirlar makoni, ya'ni do'zaxga yo'l oladi. Ammo asardagi ijobjiy mifologik obrazlar uni doimo qo'riqlab, ofatlardan qutqaradi. Keyinchalik Bod bolalikdagi do'sti Skarlet bilan birgalikda o'zining haqiqiy ota-onasining kimligini bilish uchun harakat qiladi.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Asardagi yana bir mifologik obraz Jek ismli ruh bo'lib, u Skarletning onasi bo'ladi. Jek Bodni doimiy ta'qib etib keladi. Asar kulminatsiyasida Jek Bodning ota-onasi qotili ekanligi ma'lum bo'ladi. Shundan so'ng, Bod va Skarlet o'ttasidagi do'stlikka yakun yasaladi. Bod barcha sehrgarlik qobiliyatlarini ishga solib, Jek va uning ruhlar saltanatini vayron qilishga erishadi. O'n besh yoshga to'lganda Bod ruhlar va o'liklarni ko'rish, ular bilan muloqotga kirishish qobiliyatini butkul yo'qotib, qabristonni tark etadi hamda oddiy hayotga qaytadi.

Asardagi mifologik obrazlardan yana biri jodugar Liza Hempstok bo'lib, u Bodning do'sti. Liza Rod izg'ib yuradigan qabristondagi o'liklardan biri bo'lib, faqatgina Bod bilan muloqotga kirishadigan arvohdir. Aytishlaricha, Liza o'n yettinchi asrda yashagan va qishloq ahli tomonidan jodugarlikda taxmin qilinib, suvda cho'ktirilgan yosh o'smir qizning arvohi. Liza suvda cho'kayotganida uni o'ldirayotgan kishilarni qattiq qarg'aydi va tez orada ular ham o'lim topadi. Asar voqealari davomida Liza Bodga juda ko'p yordam beradi, lekin Bod haqiqiy dunyoga qaytish istagida ekanligini eshitgach, ularning munosabati yomonlashadi. Liza Bodning qabristonni tark etib, oddiy odamlardek yashashiga qarshilik qiladi, chunki Liza jodugar arvoh bo'lganligi tufayli Bod bilan haqiqiy dunyoga qayta olmaydi. Lizadan tashqari asarda Bodning qo'riqchilari sifatida yana bir necha mifologik obrazlar mavjud. Masalan, Sayls va Miss Luplesku kabi.

Saylsning oynada aksi ko'rinishmasligi va ko'rshapalakka aylanishi, tobutda uxlashi kabi xususiyatlari uning vampirlardan ekanligini namoyon etadi. Saylsning arvohlardan farqli tomoni shundaki, u inson shakliga kirib, odamlar orasida yura oladi va shuning uchun u Bodning doimiy hamrohi bo'ladi. Sayls hamrohlik qila olmaganda, Mis Luplesku uni qo'riqlaydi. Miss Luplesku oboroten ko'rinishida bo'lib, u oy to'lganda inson qiyofasidan bo'ri qiyofasiga kiradigan mifologik obrazdir.

Miss Luplesku Bodning yeb-ichishi, turmush tarzini nazorat qilish bilan birga, unga sehrgarlik ta'lomitidan ham saboq beradi: Silas had brought Bod food, true [...] but this was, as far as Bod was concerned, the least of the things that Silas did for him. He gave advice, cool, sensible, and unfailingly correct; he knew more than the graveyard folk did, for his nightly excursions into the world outside meant that he was able to describe a world that was current, not hundreds of years out of date; he was unflappable and dependable, had been there every night of Bod's life, so the idea of the little chapel without its only inhabitant was one that Bod found difficult to conceive of; most of all, he made Bod feel safe. [6] Bod uning oboroten ekanligidan bexabar bo'lib, asar oxirida Bodni qutqarish uchun vampirlar bilan kurashayotganda bo'riga aylanganini ko'rgach, bilib qoladi. Shu jangda Miss Luplesku halok bo'ladi.

Asardagi diqqatni jalb etuvchi mifologik obrazlardan yana biri bu Slier obrazi. Ijodkor ushbu obrazni yaratishda o'zining tasavvuridan foydalangan. Slier tanasi ilonga o'xshagan uch boshli mahluq bo'lib, qabristondagi chuqurlikda yashaydi. Bod boshida undan qattiq qo'rqadi, ammo keyinchalik uning beozor ekanligini anglab yetadi. Slier o'z maslahatlari bilan Bodga yordam beradi: Bod decides to visit the Indigo Mans tomb. He climbs down the steps into the stone chamber. The Sleer coils around the room, but Bod isn't afraid. He informs the Sleer that he's going to take something away and asks if this is the Sleers grave. Cryptically, the Sleer says that the "master" left them here to guard the treasures until the master returns. Bod can feel the Sleer trying to scare him, so he picks up the brooch from the stone slab. The Sleer hisses that "it comes back" as Bod climbs out of the tomb. Once he's outside, Bod inspects the brooch. The stone is huge and red and seems to pull at Bod's soul. It's set in black metal worked into a three-headed, snakelike creature. Bod wonders if it's what the Sleer looks like. [6]

Xullas, N.Geymen ushbu asarida turli xil mifologik obraz va syujetlardan foydalanib, uning XXI asrda yaratilgan eng ommabop asarlardan biri bo'lishiga erishdi.

O'zbek zamonaviy nasrida ham mifologik obrazlardan keng foydalanilgan asarlar mavjud bo'lib, ayrim romanlarda diniy motivlarning to'g'ridan-to'g'ri tasviri keltirilgan bo'lsa, ba'zilarida Xizr, Azroil, Shayton kabi an'anaviy diniy-asotiriyo obrazlarga murojaat qilish orqali yozuvchi o'z badiiy niyatini amalga oshirishga erishadi.[1, 108] Masalan, Shoyim Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy", Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", Omon Muxtorning "Ayollar mamlakati va sultanati" asarlarini bunga misol qilish mumkin.

Sh.Bo'tayevning "Shox" deb nomlangan asarida ham mifologik obrazlar yordamida zamonaviy qiyofalarni tasvirlash yoki mifologizatsiya hodisasini kuzatish mumkin. Asarda muallif qadimiy rivoyat syujetidan foydalanib, shaytoniy xislatlarga ega bo'lgan ishbilarmon va tadbirkor Hotam va Qulmuhammad kabi bugungi kun kishilarning badiiy qiyofasini yaratgan. Bundan tashqari, asarda shayton avlodlaridan hisoblangan Janob Ximer va uning atrofidagi bir to'da gumashtalari obrazi ham mavjud. Janob Ximer "Ko'k alanga" korporatsiyasining boshlig'i bo'lib, shayton obrazining zamonaviy qiyofa kasb etgan ko'rinishidir. Uning maqsadi aniq dunyonи gunoh va hayosizliklar bilan buzish, insonning e'tiqodlarini izdan chiqarishdan iborat. Ushbu parchada Janob Ximerning shayton oilasiga mansub ekanligi va uning bobosi Iblis bo'lganligi tasvirlangan.: "Janob Ximer bobosi Iblisning yer yuziga tushishi haqidagi turli halqlarda turlicha to'qilgan yuzlab rivoyatlardan yana bittasini shu kitob ichidan topib olib, qiziqsinib ko'zdan kechirmoqda edi. Sehrlanganday kitobdan ko'z uzolmay turarkan, uning gezargan lablari: – Odam Sarandib tog'iga tushdi... – deya g'ijirlayotganday pichirladi. So'ngra och nigohi bilan yutoqib, buning davomini izlay boshladi...". [2, 109] Janob Ximerning shaytonsifat obraz ekanligini uning ko'zlaridan ko'k alanga sachratib, "Biz, albatta, g'alaba qozonajakmiz" shiori ostida o'zining shaytoniy xislatlarini namoyish qilayotganida ham kuzatish mumkin. Yana asarda muallif yunon mifologiyasidagi yer ostida joylashgan o'liklar sultanati yo'lini qo'riqlovchi uch boshli it Kerberdirning timsoliy qiyofasidan "Oltin shox" shou dasturida ishtirok etayotganlarni tasvirlash jarayonida foydalangan: "Sahnaning o'ng tomonida, eng chetda uch boshli it o'tiribdi. Uning yarqiroq ko'kish ko'zlari zalning uch tomonini nazorat qilayotganday". [2, 109]

Asarda imon-e'tiqodidan ayrılgan, jirkanch insonlar qiyofasini tasvirlashda adib yunon mifologiyasidagi favnlar va satir obrazlaridan ham foydalangan: "Chiroqchilar xayajondanmi-qo'rquvdanmi, nima kilishlarini bilmay qolishdi shekilli, hadeganda chiroq yonavermadı. Axiyi, hammayoq charog'on bo'lib ketdi-yu shu lahzadayoq zal qorong'ulashib, sahna yorishganicha qolaverdi. Bu mahal sahnada Xitoy estrada guruhiyam, ajdar ham ko'rinnmas, faqat dumli, shoxli, tuyoqli odamlargina yurishardi. Ularning ba'zilari Abul Havo qiyofasiga kirib olishgan, favnlar, satiralar rolini bajarayotganlar ham to'lib-toshib yotar edi." [2, 110] Ushbu parchada berilgan Abul Havo arab afsonalaridan olingen bo'lib, boshi va ko'kragi ayol suvratida, tanasi esa moda sher bo'lgan xayoliy mavjudotdir. Uning bu ko'rinishi bevosta yunon mifologiyasidagi Sfinksni eslatadi. Favnlar esa yunon mifologiyasida yovvoyi hirsni o'zida mujassamlashtirgan obrazdir. Satiralar ana shu hirsning qullaridir. Muallif ushbu mifologik obrazlarni birgina obrazda mujassamlashtirib, insoniylikni unutgan bir guruh jirkanch kishilarni tasvirlashda foydalangan. Zamonaviy mavzuga bag'ishlangan romanlarda bunday shayton va inson munosabatlarining tasvirlanishi asar syujet qurilishiga afsona va rivoyatlarning olib kirilishi bilan bog'liqdir. Noreal voqealarning bayon etilishi va folklor motivlarining qo'llanilishi bevosa muallif nutqi orqali xam asarga kiritilishi mumkin [1, 109 ].

**Xulosa.** Ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlardan keng foydalanilgan bo'lib, asar syujetining ta'sirchanligi va xilma-xilligiga erishilgan. Farqli xususiyati shundaki, o'zbek adabiyotida mifologik obrazlar tasvirlangan syujetlarda ko'proq tasavvufiy qarashlarga yondashilgan bo'lib, tarbiyaviy mohiyatga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Bundan tashqari, o'zbek adabiyotida ingliz folkloriga xos mifologik obrazlar ham mifologizatsiya qilingani kuzatiladi. Bu esa ikkala halq adabiyoti o'tasidagi adabiy aloqa va o'zaro ta'sirni o'zida namoyon etadi. Bunday asarlar she'riy, nasriy, dramatik turlarda, fentezi janrida uchraydi. Ko'pincha ularning semantikasi va poetik vazifalarida yaqinlik kuzatiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Doniyorova Sh. X. Istiqlol davri o'zbek romanlarida milliy ruh va qahramon. Monografiya. –Т.: MUMTOZ SO'Z. – 2011. (Дониорова Ш. Х. Народный дух и герой в узбекских романах периода независимости. Монография)
2. Bo'taev Sh. Shox. – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. (Ботаев Ш. Шокс. – Т.: Издательство Алишера Навои Национальной библиотеки Узбекистана)
3. Михайлов.И.А.Начало немецкой философской социологии: вклад В.Дильтея// Социология. № 4.– 2017.(Михайлов И.А. Начало немецкой философской социологии: вклад В.Дильтея // Социология)
4. Usmanov M.A. Mifologizatsiya va mifologik tafakkur ilmiy ixtiolar asosi sifatida. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804. (Усманов М.А. Мифологизация и мифологическое мышление как основа научных изобретений)
5. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. M harfi. – Т.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. (Национальная энциклопедия Узбекистана. Буква М. - Т.: Национальная энциклопедия Узбекистана)
6. [https://www.litcharts.com/lit/the-graveyard-book/characters/miss-lupescu.](https://www.litcharts.com/lit/the-graveyard-book/characters/miss-lupescu)